

Akademik va yoshlar uchrashuvi bo'lib o'tdi

Joriy yilning 1-mart kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti Tabiiy-matematik fanlar kafedrasini mudiri, texnika fanlari doktori, professor, Kimyo fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi – To'lyaganov Dilshat Ubaydullayevich Samarqand davlat tibbiyot universitetida yoshlar bilan uchrashuv tashkil etildi.





Tadbir davomida akademik Tulyaganov Dilshod Ubaydullayevich o'zining ilmiy va amaliy faoliyati, akademik darajasigacha yetib kelishdagi mashaqqatlari va mehnatlari haqida talabalarga so'zlab berdi. Akademik Tulyaganov Dilshod Ubaydullayevich bugungi kunda yoshlarimizga yaratilayotgan qulayliklar va ilm sohasidagi imkoniyatlar haqida so'z yuritib, talaba yoshlarni yaratilayotgan bunday imkoniyatlarda unumli foydalanishga chaqirdi.





Shuningdek, akademik universitetining tarixi va buguni bilan tanishish maqsadida, Samarqand davlat tibbiyot bilan universitet tarixi muzeyiga ham tashrif buyurdi. Uchrashuv yakunida akademik Tulyaganov Dilshod Ubaydullayevichga Yurtimizda ilm-fan sohasida malakali mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda qoʻshayotgan fidokorona hissasi, koʻp yillik samarali va halol mehnatlari hamda Samarqand davlat tibbiyot universiteti bilan hamkorligi uchun Tashakkurnoma taqdim etildi.